


## Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Farg'ona viloyati iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra Farg'ona viloyatida 2020-yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 941,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,7 % ni tashkil etdi.

**Farg'ona viloyatida fevral holatiga ko'rsatilgan xizmatlarining xajmi va o'sish sur'atlari.**




2020-yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 366,1 mlrd. so'mga oshdi.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>1 941,4</b>	<b>108,7</b>
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	117,5	117,9
moliyaviy xizmatlar	341,1	137,3
transport xizmatlari	358,8	102,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	333,4	103,8
yashash va ovqatlanish xizmatlari	48,0	102,9
savdo xizmatlari	619,6	103,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	54,8	103,4
ta'lim sohasidagi xizmatlar	70,4	92,6
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	41,2	122,3
ijara xizmatlari	53,9	106,5
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	57,9	106,4
shaxsiy xizmatlar	102,2	102,4
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	23,6	111,0
boshqa xizmatlar	52,4	104,0

Eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (137,3 %), sog'liqni saqlash sohasidagi (122,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (117,9 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (111,0 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

## 2020-yil yanvar-fevral oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm.




Joriy yilning yanvar-fevral oylarida eng yuqori hajm savdo xizmatlarida 619,6 mlrd. so'm, transport xizmatlarida 358,8 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlarda 341,1 mlrd. so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida 117,5 mlrd. so'mni tashkil etganini ko'rish mumkin.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %




2020-yil yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Farg'ona viloyatida 48,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, yashash bo'yicha xizmatlar 5,1 mlrd. so'm, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 42,9 mlrd. so'mni tashkil etgan.

2020-yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar tarkibi  
(jami hajmga nisbatan, %)




Xizmatlar tarkibida eng katta ulushlarni savdo xizmatlari (31,9 %), transport xizmatlari (18,5 %), moliyaviy xizmatlar (17,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,0 %), shaxsiy xizmatlar (5,3 %) hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar (3,6 %) tashkil etadi.

### 2020-yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan transport xizmatlari tarkibi, %



2020-yil yanvar-fevral oylarida transport xizmatlari hajmi Farg'ona viloyatida 358,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 333,4 mlrd. so'mni, jami transport xizmatlarining 92,9 % ni tashkil etadi.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



Xizmatlar sohasining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (137,3 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (122,3 %) aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (117,9 %), hamda me'morchilik sohasidagi xizmatlar (111,0 %) hissasiga to'g'ri keladi.


**2020-yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</b>
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>1 941,4</b>	<b>108,7</b>
Farg'ona sh.	939,8	113,6
Qo'qon sh.	256,3	107,4
Quvasoy sh.	30,8	103,1
Marg'ilon sh.	146,8	103,9
Oltiariq t.	49,4	103,0
Qo'shtepa t.	29,4	104,6
Bag'dod t.	39,3	103,3
Buvayda t.	40,4	103,3
Beshariq t.	42,3	104,8
Quva t.	43,1	102,2
Uchko'prik t.	52,5	103,6
Rishton t.	37,6	102,5
So'x t.	16,8	105,9
Toshloq t.	38,9	104,1
O'zbekiston t.	44,3	102,9
Farg'ona t.	53,1	101,8
Dang'ara t.	37,0	103,4
Furqat t.	18,7	103,1
Yozyovon t.	24,9	104,5
<b>2020-yil yanvar-fevral</b>	<b>Xizmatlar sohasining rivojlanishi</b>	<b>8</b>



2020-yil yanvar-fevral oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Farg'ona (113,6 %), Qo'qon (107,4 %), shaharlarida hamda So'x (105,9 %), va Beshariq (104,8 %) tumanlarida qayd etildi.

## 2020-yil yanvar-fevral oylarida Farg'ona viloyatida jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi (jami hajmga nisbatan %)



2020-yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga nisbatan eng yuqori ulushni Farg'ona (48,4 %), Qo'qon (13,2 %) va Marg'ilon (7,6 %) shaharlarida hamda Uchko'prik (2,7 %), Farg'ona (2,7 %) tumanlarida qayd etildi.